

## Navoiy viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-mart dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR


### I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- aprel holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 144 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 9 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 135 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-mart oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 3 247,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 108,4 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 306,8 mlrd. so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 133,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2 940,5 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 199,1 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 112,9 %) tashkil etdi.

#### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

**Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)**


■ Yirik korxonalar ■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ■ Uyushmagan savdo

**II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**

2025- yil 1- aprel holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 460 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 454 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 013,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 802,3 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 79,1 % ni tashkil qildi.


**Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd. so'm)**

Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Navoiy shahri (124,3 %), Qiziltepa tumani (119,1 %), Zarafshon shahri (102,8 %) kuzatildi.



### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

### III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1- aprel holatiga umumiyligi ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 055 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 051 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-mart oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 1 214,9 mlrd. so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 91,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)****IV. METAMA'LUMOTLAR**

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuvi va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlataladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

**V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga masul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: O.Eshtilovov Tel: +998792235043	Ijrochi: Sh.Aliqulov Tel: +998792235043 e-pochta: nv@navstat.uz	Manzil 210100, Navoiy sh., Amir Temur ko'chasi, 4-uy
---	---	---	---